

ПЕДАГОГИК ВА
ПСИХОЛОГИК
ТАДҚИҚОТЛАР

МАРТ, 2023

3-СОН



**PEDAGOGICAL AND
PSYCHOLOGICAL STUDIES**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-3>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Педагогика фанлари

XUDOYBERDIYEV Eldor

Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7767937>

МАКТАВ ТА’ЛИМИНИ БОШҚАРИШ STRATEGIYASIDA MILLIY MANFAATLARNI INOBATGA OLISH ZARURAT SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktab ta’limini boshqarish strategiyasini qadriyatlar asosida belgilash zarurati, globallashuv jarayonida etnik ozchilikni tashkil etadigan millat va elatlar tili, madaniyatini saqlab qolish hamda rivojlantirishda ta’limni himoya qiluvchi kuch sifatida ko’rishi sabablari haqida mulohaza yuritilgan.

Tayanch soʻzlar: strategiya, qadriyat, milliy oʻzlik, ta’lim, ehtiyoj.

СТРАТЕГИЯ УПРАВЛЕНИЯ ШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ С УЧЕТОМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ КАК НАДО

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается необходимость определения стратегии школьного образования на основе ценностей, причины, по которым образование рассматривается как защитная сила в сохранении и развитии языка и культуры национальных меньшинств в условиях глобализации.

Ключевые слова: стратегия, ценность, национальная идентичность, образование, потребность.

IN SCHOOL EDUCATION MANAGEMENT STRATEGY CONSIDERING NATIONAL INTERESTS AS NECESSARY

ANNOTATION

This article discusses the need to define the strategy of school education based on cultural heritage, the reasons why education is seen as a protective force in preserving and developing the language and culture of ethnic minorities in the process of globalization.

Key words: Strategy, value, national identity, education, need.

Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarning shiddat bilan oʻzgarishi inson kapitaliga boʻlgan munosabatni ham oʻzgartirdi va inson resurslarini boshqarishning yangi tamoyillariga zaruratni yanada oshirdi. Shuningdek, xalqlar hamda millatlar oʻrtasida milliy oʻzlikni anglashga boʻlgan eʼtibor kuchaydi. Insoniyat oʻzining bu kabi ehtiyojlarini faqat ta’lim-tarbiya orqali qondirish mumkinligini tushinib yetdi. Shu sababdan butun dunyo ta’limida yangi islohatlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda insonlar nafaqat sifatli kadr va jamiyatning faol aʼzosi uchun zarur koʻnikmalarni egallashga, balki tarixi, dini, madaniyati, milliy qadriyat hamda anʼanalari, tili va adabiyotini oʻrganish, uni boyitish hamda saqlab qolish, kelgusi avlodlarga yetkazish orqali oʻzligini chuqurroq anglashga kuchli ehtiyoj sezmoqda. Bu esa maktablardan taʼlimni boshqarish strategiyasini belgilashda mahalliy aholining milliy qadriyatlarini inobatga olishni talab qiladi. Mahalliy aholi – maʼlum bir hududda yashaydigan oʻz tili, madaniyati, dini va qadriyatlariga ega millat yoki elatlar. Oʻzbekistonda bir yuz oʻttizdan ziyod millat va elat vakillari yashaydi, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritadi [10, B.3].

Ushbu millat va elatlar mamlakatimizning turli shahar, qishloqlarida birgalikda yashab kelmoqda. Bu davlatdan millatlar oʻrtasidagi doʻstlik va oʻzaro hurmatni yanada rivojlantirish, barcha fuqarolar uchun teng yashash sharoiti hamda taʼlim olish imkoniyatini yaratib berish, taʼlim siyosatini olib borishda taʼlim tili hisoblangan oʻzbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirgʻiz va turkman tillarida oʻqitiladigan maktablarda nafaqat ushbu xalqlarning, balki bu yetti tilda taʼlim oladigan boshqa millat va elatlarning ham milliy qadriyatlarni inobatga olish maʼnaviy-maʼrifiy, siyosiy-mafkuraviy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida son jihatidan kamchilikni tashkil qiladigan millatlarning (yaʼni davlat tilidan boshqa tilda gaplashadigan aholi) tili oʻqitish tili boʻlgan maktablarda taʼlimni boshqarish strategiyasi ushbu xalqlarning milliy manfaatlarini oʻzida aks ettirishi, shunga mos taʼlim tamoyillarini yaratish va mustahkamlashga xizmat qilishi shart qilib belgilab qoʻyilgan.

Yevropa Ittifoqining taʼlimni tahlil qilish milliy boʻlinmalari tarmogʻi boʻlgan “Eurydice”ning 2019-yildagi Yevropa maktablarida mintaqaviy yoki kamsonli aholi gaplashadigan tillarni oʻrgatish boʻyicha hisobotida Yevropada koʻplab tillarning uygʻun, birga yashashi Yevropa Ittifoqining xilma-xillikda birlashishga intilishining kuchli ramzi va Yevropa loyihasining asoslaridan biri ekanligi taʼkidlangan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida 24 ta rasmiy til va 3 ta alifbo mavjud boʻlib, ularning baʼzilari butun dunyoni qamrab olganligi, 60 ga yaqin boshqa tillar ham Yevropa Ittifoqi merosining bir qismi boʻlib, ular muayyan mintaqalarda yoki maʼlum guruhlar tomonidan isteʼmolda ekanligi taʼkidlangan [7, B.3].

2020-yilgi hisobotida esa kamsonli aholi gaplashadigan tillar toifasiga mansub oʻz tillarida taʼlim olgan bolalar “asosiy” taʼlimdagi bolalar, yaʼni davlat tilida oʻqiyotgan oʻquvchilarga qaraganda ham matematika, tabiatshunoslik, tarix va geografiya kabi fanlarni nisbatan yaxshiroq oʻzlashtirganligini, bu sohalarida samarali mehnat qilishayotganligi haqidagi maʼlumotlar mavjudligini aytish mumkin. Bu esa taʼlim muassasalari faoliyatini strategik rejalashtirishda davlat tilidan boshqa tillarda taʼlim beradigan pedagoglar bazasini shakllantirish va ularni kasbiy rivojlantirishni inobatga olishi kerakligini anglatadi.

Strategik rejalashtirish – taʼlim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur boʻlgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni boʻlib, bunda maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va obyektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit taʼsiri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlari, shuningdek, boshqaruv strategiyasi, yaʼni strategiyani amalga oshirishni boshqarish yoʻnalishlari oʻrganilib tahlil qilinadi. Shu jihatdan, avvalo, maktab oʻzining asosiy maqsadini aniqlab olishi zarur va ushbu maqsad millati, dini, ijtimoiy mavqeidan qatʼiy nazar oʻquvchilarning ehtiyojlariga asoslanishi kerak [8, B.120].

Jamiyat hayotida roʻy berayotgan oʻzgarishlar kishilar ijtimoiy faoliyatining shakl va metodlari jadal ortib borishiga olib keladi. Bu esa, tizimli tahlil nuqtai nazaridan, davlat va jamoat tuzilmalarining ular bilan ishlash shakllari va metodlari xilma-xilligi ortib borishi kerakligini bildiradi. Ular yanada dinamik boʻlishi va oʻzgarishlarga tezroq moslashishi, boshqaruv obyektining muhim tomoni boʻlmish nomuayyanlikni hisobga olishni ham uzviy qamrab olish lozim. Shu sababdan maktab taʼlimiga innovatsiyalarni joriy etishda strategik baholash muhim ahamiyatga ega. **Strategik baholash** jarayonida ichki va tashqi muhit, maktabning mavjud holati, imkoniyatlari, kamchiliklari va yutuqlari tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga koʻra, maktab faoliyati strategik rejalashtiriladi [9, B.61].

Les Bell holatlarni baholash va taqqoslash jarayonida maktab ko'rsatgichlarini maktablararo bir-biri bilan taqqoslashdan ko'ra maktab ichidagi farqlarga ko'proq e'tibor berish kerakligiga urg'u beradi[4, B.10]. Fikrimizcha, u strategiyani belgilashda maktab ichidagi farqlarni, ya'ni yutuq va kamchiliklarni, o'ziga xos qadriyat hamda ana'analarni aniqlab olib, shu asosida faoliyatni rejalashtirish zarurligini ta'kidlamochi.

Qadriyatlar umuminsoniy, milliy-madaniy va muayyan ijtimoiy-madaniy shakllarning sintezi bo'lgani holda, ta'lim standartlariga va uning mazmuniga obyektiv tarzda kirgan bo'ladi[9, B.24]. Strategiyani belgilashda shartli ravishda qadriyatlarning milliy, umuminsoniy va tashkilot (maktab)ga xos jihatlariga e'tibor qaratishimiz zarur. Chunki bugungi globallashtirish davrida mamlakatlarda turli millat va elatlar yashaydi, ular ta'lim tili sifatida o'z ona tilidan foydalanishni, shuningdek, milliy qadriyatlarining boshqalar tomonidan hurmat qilinishini xohlashadi. Shu bilan bir qatorda har bir maktabning o'z qadriyati mavjud bo'lib, strategiyani belgilashda ushbu omillarga e'tibor berish lozim. Shundagina strategiya jamiyat va jamoa tomonidan ijobiy qabul qilinadi hamda uni amalga oshirishda muammolar kamayadi.

Shu o'rinda "Strategiya nima uchun kerak?" degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: Agar konseptual loyihada ko'zda tutilgan turli yangiliklarni bir vaqtning o'zida kiritish mumkin bo'lsa-yu, buning uchun haddan ziyod katta sa'y-harakat talab etilsa yoki qandaydir cheklashlar mavjud bo'lsa, unda "Nimani va qanday ketma-ketlikda qilish kerak?" degan savol yuzaga keladi. Bu savolga javob berish uchun o'zgarishlar navbatini va sa'y-harakatining ular o'rtasida taqsimlanishini aniqlash tamoyilini ta'riflash kerak. Ana shu narsa strategiya bo'ladi[9, B.308].

Strategiya (strategos) grekcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "general san'ati" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ham mazkur atama urish olib borish san'ati, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati va ilmi ma'nolarida talqin etilgan. Strategiya so'zi bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxonalar yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, shuningdek, maqsadga erishish natijalarini oldindan aniqlash va nazorat qilish yo'nalishida keng qo'llanilmoqda [8, B.119].

O'zbekiston ko'p millatli davlat bo'lsa-da, aholisining asosiy qismini o'zbek millatiga mansub qatlam tashkil etadi. Shu sababli mamlakatda o'zbek tili davlat tili hisobladi. Ammo boshqa tillarda ham erkin muloqat qilish, ta'lim olish cheklanmagan. Jumladan, ta'lim tili rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman tili bo'lgan maktablar mavjud. Ta'lim tashkilotlarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 33-moddasida "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinishi ta'kidlangan. "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi berilishi belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda Yevropa davlatlarida davlat tilidan boshqa mahalliy tillarga "ozchilik tillar" atamasi ishlatiladi. Ya'ni dunyo davlatlarida son jihatidan ko'pchilikni tashkil etadigan millat tili asosiy til, (Masalan, Angliyada ingliz tili, Fransiyada fransuz tili, Qozog'istonda qozoq tili, O'zbekistonda o'zbek tili) ya'ni davlat tili hisoblansa, son jihatidan kamchilikni tashkil etadigan millatlarning tillari "ozchilik tillar" deb yuritiladi. Jumladan, O'zbekistonda rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg'iz va turkman tillari ozchilik tillar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda dunyo hamjamiyatida kamsonli aholi gaplashadigan mahalliy tillar guruhlari o'ziga xos tendensiyalarni boshdan kechirmoqda. Avvallari olis hududdagi nisbatan izolyatsiya mahalliy tillarning omon qolishi uchun himoya vazifasini o'tagan bo'lsa, globallashtirish ularning hayotiga kirdi va ushbu hududlarda yo'qolib ketishi mumkinligi xavfi paydo bo'ldi.

Ko'plab mamlakatlarda ularning aksariyati an'anaviy ravishda bir shtatning ma'lum bir hududida yoki ba'zan bir nechta shtatlarning chegaralarida o'z tillarida so'zlashadi. Chunki etnik ozchilikni tashkil etadigan millat va elatlarning ma'lum bir hududda tarqalishi odatda ularga xos asosiy xususiyatlaridan biridir. Telekommunikatsiya va xalqaro transport sohasidagi yutuqlar boshqa madaniyatlar g'oyalari hamda mahsulotlari ta'siridan ajralib turishni imkonsiz qilib qo'ydi. Mahalliy iqtisodiyotlar global iqtisod bilan birlashishi va tovarlar, mehnat, kapital va turizm oqimining oqibatlari dunyoning istalgan burchagida sezilmoqda.

Ko‘pincha bu holatlar mahalliy tillarning saqlanib qolishiga tahdid sifatida qaraladi. Mahalliy tillar an‘anaviy ravishda davlat tilida so‘zlashuvchilar tomonidan e‘tiborga olinmaydi, shu sababli mahalliy tillarda so‘zlashuvchilarning o‘zlari til va madaniyatini saqlab qolishga harakat qilishmoqda. Etnik ozchilik aholi o‘zlarining tili va qadriyatlarini jamiyatda shaxs sifatidagi o‘rnini belgilovchi hamda kundalik muloqotdagi asosiy vositasi deb bilishadi. Mahalliy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tarixi, dini, madaniyati, tili va adabiyotini saqlab qolish va rivojlantirishda ta‘limni himoya qiluvchi kuch sifatida ko‘radilar. Davlat odatda umumiy foydalanish uchun standart bo‘lgan davlat tilini kuchli targ‘ib qilish orqali milliy birdamlikka yordam beradi, bu esa etnik ozchilikni tashkil etadigan xalqlarning tili va madaniyatining saqlanib qolishi hamda rivojlanishi uchun jiddiy ta‘sir qiladi. Shu sababli bugungi kunda omon qolish uchun kurashda ko‘plab kamsonli aholi guruhlari ta‘lim tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lishni maqsad qilgan. Ayrim ozchiliklar uchun maktablarda tilning ramziy tan olinishi allaqachon o‘z-o‘zini hurmat qilishning kuchayishi hisoblanadi. Ko‘plab ozchilik guruhlar, agar o‘zlari o‘zligini saqlab qolishga harakat qilmasa, maktabning o‘zi buni qila olmasligini yaxshi bilishadi. Mahalliy tilda so‘zlashuvchilar ham yoshligidanoq bir nechta tillarni o‘rganishlari va ulardan foydalanishlari kerakligini bilgan holda o‘z ona tilini rivojlantirishda ta‘limning roli muhim ekanligini yaxshi anglashadi [5, B.3].

Maktab ta‘limi strategiyasini belgilashda ushbu omillarni inobatga olgan holda davlat tilidan boshqa tillarda, ya‘ni ozchiliklar tilida ta‘lim olib boriladigan maktab yoki sinflar hamda etnik jihatdan kamchilikni tashkil qiladigan millat, elatlarning ehtiyoj va qadriyatlariga e‘tibor qaratish lozim.

Kuzatishlarimiz natijasida ma‘lum bo‘ldiki, jahondagi etnik ozchilikni tashkil etadigan va mahalliy tillarda gaplashadigan millat hamda elatlarning o‘zligini ya‘ni tarixi, dini, madaniyati, tili va adabiyotini saqlab qolishga, ta‘lim-tarbiya orqali uni yanada rivojlantirishga, shu bilan qadriyat va an‘analarini kelajak avlodlarga yetkazish ehtiyoji kuchaymoqda. Buning asosiy sababi millat sifatida o‘zligini hurmat qildirishga erishish, bu orqali jamiyatda o‘z o‘rniga ega teng huquqli fuqaro va shaxs sifatida u bilan hisoblashishayotganligini his qilish istagi. Shuningdek, bugungi globallashuv negizida til va madaniyatlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan integratsiya sharoitida o‘zligini asrab qolishga bo‘lgan ehtiyoj. Strategik baholash jarayonida ushbu ehtiyojlarni yaxshilab o‘rganish, ichki va tashqi tahlilni amalga oshirishda asosiy aholiga nisbatan ozchilikni tashkil etadigan millat hamda elatlarning qadriyatlari, manfaatlari bilan hisoblashish zarur. Shundagina millatlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlikni kuchaytirish, teng huquqli erkin hamda farovon jamiyat barpo etish mumkin bo‘ladi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish zarur vazifa sifatida belgilangan [3]. Har bir shaxs o‘zi yashayotgan jamiyatda o‘zini inson va millat sifatida hurmat qilishayotganini ko‘rsa, anglasa, o‘sha jamiyatning bir bo‘lagiga aylana oladi hamda shu jamiyatning rivojiga o‘z hissasini qo‘shishdan manfaatdor bo‘ladi. Shunday ekan, maktab ta‘limini boshqarish strategiyasini belgilash va uni amalga oshirishda ta‘lim ishtirokchilari hamda muassasalarining qadriyatlarini inobatga olish zarur.

IQTIBOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” gi Qonuni (yangi tahriri), 1995.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni. 2022.
4. Bell L. (2002), Strategic Planning and School Management: full of sound and fury, signifying nothing?, The Journal of Educational Administration, P.10. DOI: 10.1108/09578230210440276
5. D. Gorter et al. (eds.), Minority Languages and Multilingual Education: DOI 10.1007/978-94-007-7317-2_1, © Springer Science+Business Media Dordrecht 2014. Pp.2-3. DOI: <https://doi.org/10.1787/9789264247598-5-en>
6. European Commission, 2020. Good practices of multilingual and minority language medium education. Council of Europe Publishing. F-67075 Strasbourg Cedex. <http://book.coe.int>. Council of Europe, November 2020. P.3.
7. European Commission/EACEA/Eurydice, 2019. P.6. The Teaching of Regional or Minority Languages in Schools in Europe. Eurydice Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
8. Джураев Р.Х. Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Тошкент. “VORIS-NASHRIYOT”, 2006. – 119, 120 б.
9. ҚурбоновШ., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. Т.: “Турон-Иқбол”: 2006. – 24, 61, 308 б.
10. Эргашев А. Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётинини қиёсий ўрганиш (таълим ўзбек, қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ ва туркман тилларида олиб бориладиган мактабларнинг V-IX синфлари адабиёт дарслари мисолида): пед. фан... (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 3 б.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 3-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-3

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz